<p>jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish;</p> <p>jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;</p> <p>o'z aksiyalarini olish;</p> <p>jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p> <p>jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;</p> <p>jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;</p> <p>jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;</p> <p>jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;</p> <p>aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;</p> <p>aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;</p> <p>jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;</p> <p>balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilinadi. Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin;</p> <p>agar Jamiyat kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qaror ushbu Qonunda belgilangan</p>	<p>определение максимального размера объявленных акций;</p> <p>увеличение уставного фонда (уставного капитала) общества;</p> <p>уменьшение уставного фонда (уставного капитала) общества;</p> <p>приобретение собственных акций;</p> <p>утверждение организационной структуры общества, образование исполнительного органа, избрание (назначение) его руководителя и досрочное прекращение полномочий руководителя;</p> <p>утверждение годового отчета и ежегодного бизнес-плана общества, а также стратегии развития общества на среднесрочный и долгосрочный периоды с определением конкретных сроков исходя из основных направлений и целей деятельности общества;</p> <p>распределение прибыли и убытков общества;</p> <p>заслушивание отчетов наблюдательного совета общества по вопросам, входящим в его компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению обществом;</p> <p>принятие решения о выпуске обществом корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции;</p> <p>принятие решения о выпуске производных ценных бумаг;</p> <p>принятие решения о выкупе корпоративных облигаций общества;</p> <p>определение цены размещения (выпуска на организованные торги ценными бумагами) акций;</p> <p>утверждение регламента общего собрания акционеров;</p> <p>дробление и консолидация акций;</p> <p>определение вознаграждений и (или) компенсаций, выплачиваемых исполнительному органу общества, а также их предельных размеров;</p> <p>принятие решения о совершении крупной сделки, предметом которой является имущество, балансовая стоимость или стоимость приобретения которого составляет более пятидесяти процентов от размера чистых активов общества на дату принятия решения о совершении сделки. В случае отсутствия единогласия наблюдательного совета общества по вопросу совершения крупной сделки, вопрос может быть вынесен на решение общего</p>
--	--

<p>tartibda va muddatlarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilish; majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish; qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.</p>	<p>собрания акционеров по решению наблюдательного совета; принятие решения по сделке в порядке и сроки, установленные законом, если два и более члена наблюдательного совета общества являются аффилированными лицами; определение аудиторской организации для проведения обязательной аудиторской проверки, максимального размера оплаты её услуг и принятие решения о заключении с ней договора (расторжении договора); решение иных вопросов в соответствии с законодательством.</p>
<p>8.5.Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishda ishtirok etayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari - aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi (oddiy ko'pchilik) bilan qabul qilinadi</p>	<p>8.5.Решение общего собрания акционеров по вопросу, поставленному на голосование, принимается большинством голосов акционеров — владельцев голосующих акций общества (простым большинством), принимающих участие в собрании</p>
<p>Qonunchilikka muvofiq qaror qabul qilinishi uchun malakali ko'pchilik ovozi talab etiladigan masalalar bo'yicha qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozining to'rt dan uch qismi bilan qabul qilinadi.</p>	<p>По вопросам, решение которых в соответствии с законодательством принимается квалифицированным большинством, принимается общим собранием акционеров большинством в три четверти голосов акционеров — владельцев голосующих акций, принимающих участие в общем собрании акционеров.</p>
<p>8.6.Aksiyadorlar umumiy yigilishi vakolatiga kiradigan masalalar jamiyat kuzatuv kengashiga hal etish uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida va ushbu ustavda belgilangan masalalar bundan mustasno.</p>	<p>8.6. Вопросы, отнесенные к компетенции общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение наблюдательного совета общества, за исключением вопросов, установленных законодательством и настоящим уставом</p>
<p>8.7.Barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari o'tkazilmaydi. Ushbu Qonun va jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi va yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim.</p>	<p>8.7.В обществе, все простые акции которого принадлежат одному акционеру, общие собрания акционеров не проводятся. Решения по вопросам, отнесенным настоящим Законом и уставом общества к компетенции общего собрания акционеров, принимаются таким акционером единолично и подлежат оформлению в письменной форме.</p>
<p>8.8. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari, ushbu ustav hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (yakka aksiyador) to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiradi.</p>	<p>8.8. Общее собрание акционеров Общества осуществляет свою деятельность на основании действующего законодательства, настоящего устава и положения «Об Общем собрании акционеров (Единственном акционере)», утвержденного общим собранием акционеров.</p>
<p>9. JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI</p>	<p>9.НАБЛЮДАТЕЛЬНЫЙ СОВЕТ ОБЩЕСТВА</p>
<p>9.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. ushbu Ustav bilan aksiyadorlar umumiy</p>	<p>9.1. Наблюдательный совет Общества осуществляет общее руководство деятельностью Общества, за исключением решения вопросов,</p>

yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.	отнесенных настоящим Уставом к компетенции общего собрания акционеров.
9.2. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari amaldagi qonunchilik va mazkur ustav asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 3 (uch) kishidan iborat	9.2. Члены наблюдательного совета Общества избираются общим собранием акционеров на основании действующего законодательства и настоящего устава сроком на 3 (три) года. Количественный состав наблюдательного совета Общества составляет 3 (три) человека.
<p>9.3. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:</p> <p>jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;</p> <p>aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;</p> <p>aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;</p> <p>mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;</p> <p>korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;</p> <p>jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;</p> <p>ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;</p> <p>jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya</p>	<p>9.3. К компетенции Наблюдательного совета относятся:</p> <p>определение приоритетных направлений деятельности общества с регулярным заслушиванием отчетов исполнительного органа о принимаемых мерах по реализации стратегии развития общества;</p> <p>созыв годовых и внеочередных общих собраний акционеров;</p> <p>подготовка повестки дня общего собрания акционеров;</p> <p>определение даты, времени и места проведения общего собрания акционеров;</p> <p>установление даты формирования реестра акционеров общества для оповещения о проведении общего собрания акционеров;</p> <p>организация определения рыночной стоимости имущества;</p> <p>назначение корпоративного консультанта и утверждение положения, определяющего порядок его деятельности;</p> <p>одобрение ежегодного бизнес-плана общества. При этом бизнес-план общества на предстоящий год должен быть одобрен на заседании наблюдательного совета не позднее 1 декабря текущего года;</p> <p>создание службы внутреннего аудита и назначение её работников, а также ежеквартальное заслушивание её отчетов;</p> <p>свободный доступ к любым документам, касающимся деятельности исполнительного органа общества, и получение их от исполнительного органа для выполнения</p>

<p>organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;</p> <p>auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;</p> <p>jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;</p> <p>jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;</p> <p>jamiyatning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;</p> <p>balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish;</p> <p>affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi axborotni o'rganish va affillangan shaxsning yozma bildirishi jamiyatga kelib tushgan sanadan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay bitim bo'yicha qaror qabul qilish.</p> <p>jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;</p> <p>jamiyatning rahbari lavozimiga o'tkaziladigan tanlov reglamentini tasdiqlash, ijro organi rahbari lavozimiga tanlov e'lon qilish va o'tkazish;</p> <p>homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish;</p>	<p>возложенных на наблюдательный совет задач. Наблюдательный совет и его члены могут использовать полученные документы исключительно в служебных целях;</p> <p>принятие решения о проведении аудиторской проверки (за исключением обязательной аудиторской проверки), определение аудиторской организации, максимального размера оплаты её услуг и заключение с ней договора (расторжение договора);</p> <p>дача рекомендаций по размеру дивиденда, форме и порядку его выплаты;</p> <p>использование резервного и иных фондов общества;</p> <p>создание филиалов и открытие представительств общества;</p> <p>создание дочерних и зависимых хозяйственных обществ;</p> <p>принятие решения о совершении крупной сделки, предметом которой является имущество, балансовая стоимость или стоимость приобретения которого составляет от пятнадцати до пятидесяти процентов от размера чистых активов общества на дату принятия решения о совершении сделки;</p> <p>изучение информации о сделке с аффилированным лицом и принятие решения по сделке не позднее пятнадцати дней со дня поступления в общество письменного уведомления от аффилированного лица;</p> <p>заключение сделок, связанных с участием общества в коммерческих и некоммерческих организациях, в порядке, установленном законодательством;</p> <p>утверждение регламента конкурса на должность руководителя общества, объявление и проведение конкурса на должность руководителя исполнительного органа;</p> <p>установление порядка и условий оказания (получения) спонсорской (благотворительной) или безвозмездной помощи и принятие решений по этому вопросу;</p>
--	--

<p>jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash;</p> <p>eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun kuzatuv kengashi a'zolari orasidan komissiyalar tuzish;</p> <p>jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.</p>	<p>организация оценки системы корпоративного управления в обществе, выбор на конкурсной основе независимой организации, имеющей право на проведение оценки;</p> <p>создание из числа членов наблюдательного совета комитетов для рассмотрения наиболее важных вопросов и подготовки рекомендаций наблюдательному совету;</p> <p>вопросы, отнесенные к компетенции наблюдательного совета общества, не могут быть переданы для решения исполнительному органу общества.</p>
<p>Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagi masalalar ham kiritilgan: jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga ustav kapitalining ko'paytirilishi hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonining kamaytirilishi bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;</p> <p>qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasi kelib chiqqan holda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolariga chiqarish) narxini belgilash;</p> <p>jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p> <p>jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash.</p>	<p>К компетенции наблюдательного совета общества также отнесены вопросы: увеличение уставного капитала общества, а также внесение изменений и дополнений в устав общества, связанных с увеличением уставного капитала общества и уменьшением количества объявленных акций общества;</p> <p>определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций, исходя из конъюнктуры цен, складывающихся на площадках организаторов торгов ценными бумагами;</p> <p>принятие решения о выпуске обществом корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции;</p> <p>принятие решения о выпуске производных ценных бумаг;</p> <p>принятие решения о выкупе корпоративных облигаций общества;</p> <p>образование исполнительного органа общества, избрание (назначение) его руководителя, досрочное прекращение его полномочий;</p> <p>установление размеров выплачиваемых исполнительному органу общества вознаграждений и компенсаций;</p>
<p>9.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.</p>	<p>9.4. Избрание членов наблюдательного совета Общества осуществляется путем кумулятивного голосования.</p>
<p>9.5. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv</p>	<p>9.5. При кумулятивном голосовании количество голосов, принадлежащих каждому акционеру,</p>

<p>kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.</p> <p>Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.</p>	<p>умножается отдельно на количество независимых членов и на количество остальных членов, которые должны быть избраны в наблюдательный совет общества, и акционер вправе отдать полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами.</p> <p>Избранными в состав наблюдательного совета общества считаются кандидаты, набравшие наибольшее количество голосов.</p>
<p>9.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.</p>	<p>9.6. В протоколе общего собрания акционеров, на котором были избраны члены наблюдательного совета, должно быть указано, представителем какого акционера является каждый член совета либо кто из членов наблюдательного совета является независимым членом.</p>
<p>9.9. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.</p>	<p>9.9. Лица, избранные в состав наблюдательного совета Общества, могут переизбираться неограниченное число раз.</p>
<p>9.10. Jamiyat ijroiya organi kuzatuv kengashiga saylanishi yoki tayinlanishi mumkin emas.</p> <p>9.11. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas.</p> <p>9.12. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.</p>	<p>9.10. Лица, входящие в исполнительный орган общества, не могут быть избраны или назначены в наблюдательный совет.</p> <p>9.11. Лица, работающие в Обществе по трудовому договору (контракту), не могут быть членами наблюдательного совета Общества.</p> <p>9.12. Председатель наблюдательного совета избирается членами совета из их числа большинством голосов. Наблюдательный совет вправе переизбрать своего председателя большинством голосов от общего числа членов.</p>
<p>9.13. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida raislik qiladi.</p>	<p>9.13. Председатель наблюдательного совета Общества организует его работу, созывает заседания наблюдательного совета и председательствует на них, организует ведение протокола на заседаниях и председательствует на общих собраниях акционеров.</p>
<p>9.14. Jamiyat kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.</p>	<p>9.14. В случае отсутствия председателя наблюдательного совета Общества его обязанности исполняет один из членов наблюдательного совета.</p>
<p>9.15. Jamiyat kuzatuv kengashining qarori uning a'zolarinig kamida 75 (etmish besh) foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi.</p>	<p>9.15. Решение наблюдательного совета Общества считается законным (имеет кворум), если в его заседании участвуют не менее 75 (семидесяти пяти) процентов его членов.</p>
<p>9.16. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi. Jamiyat kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari</p>	<p>9.16. Заседания наблюдательного совета созываются и проводятся его председателем не реже одного раза в квартал. Внеочередные заседания наблюдательного совета Общества</p>

<p>kuzatuv kengash raisining tashabbusi bilan yoki qo'yidagilar talabiga ko'ra chaqiriladi: kuzatuv kengash a'zolarining; Jamiyat ijroiya organining; ichki audit hizmati boshlig'ining talabiga ko'ra va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.</p>	<p>созываются по инициативе председателя наблюдательного совета или по требованию: членов наблюдательного совета; исполнительного органа Общества; руководителя службы внутреннего аудита и в иных случаях, предусмотренных действующим законодательством.</p>
<p>9.17. Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.</p>	<p>9.17. Владельцы не менее 1 процента обыкновенных акций Общества имеют право требовать созыва заседания наблюдательного совета и вносить предложения по повестке дня.</p>
<p>9.18. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosi berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.</p>	<p>9.18. Решения на заседании наблюдательного совета принимаются большинством голосов присутствующих на заседании, если иное не предусмотрено законодательством. При решении вопросов на заседании наблюдательного совета каждый член совета обладает одним голосом. Передача голоса одним членом наблюдательного совета другому члену совета не допускается. В случае равенства голосов членов наблюдательного совета голос председателя совета является решающим.</p>
<p>9.19. Majlisda kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalari orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.</p>	<p>9.19. Члены наблюдательного совета могут участвовать в заседании посредством конференц-связи с использованием видео- и аудиооборудования, при этом их голоса не считаются поданными заочно.</p>
<p>9.20. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi va u majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi.</p>	<p>9.20. На заседании наблюдательного совета Общества ведется протокол, который составляется не позднее 10 (десяти) дней после проведения заседания.</p>
<p>9.21. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga majburdirlar.</p>	<p>9.21. Члены наблюдательного совета обязаны исполнять свои должностные обязанности добросовестно, а также таким способом, который они считают наилучшим в интересах Общества.</p>
<p>9.22. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.</p>	<p>9.22. Члены наблюдательного совета Общества несут ответственность перед Обществом и его акционерами за ненадлежащее исполнение своих обязанностей в соответствии с действующим законодательством.</p>
<p>9.23. Jamiyat kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu ustav va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlangan «Jamiyat kuzatuv kengashi to'g'risida»gi nizom asosida amalga oshiradi.</p>	<p>9.23. Наблюдательный совет Общества осуществляет свою деятельность на основании действующего законодательства, настоящего устава и положения «О наблюдательном совете Общества», утвержденного общим собранием акционеров.</p>

10. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI	10. ИСПОЛНИТЕЛЬНЫЙ ОРГАН ОБЩЕСТВА
10.1. Jamiyat direktori aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uning amal qilish muddatini uzaytirish yoki tugatish imkoniyati to'g'risida yillik qaror qabul qilgan holda uch yil muddatga saylanadi (tayinlanadi).	10.1. Директор Общества избирается (назначается) Общим собранием акционеров сроком на три года с ежегодным принятием решения о возможности его продления или прекращения.
10.2. Direktorni saylash qoida tariqasida, xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.	10.2. Избрание директора осуществляется, как правило, на основе конкурса, в котором могут принимать участие иностранные менеджеры.
10.3. Direktor lavozimiga tanlov o'tkazish tartibi, nomzodga qo'yiladigan talablar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi	10.3. Порядок проведения конкурса на должность директора и требования к кандидату определяются Наблюдательным советом Общества.
10.4. Direktorni saylash (tayinlash) to'g'risidagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishda qatnashayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.	10.4. Решение общего собрания акционеров об избрании (назначении) директора принимается большинством голосов голосующих акционеров общества, принимающих участие в собрании.
10.5. Direktor lavozimiga nomzod saylangandan (tayinlangandan) keyin kuzatuv kengashi u bilan 3 (uch) yil muddatga shartnoma tuzadi. Shartnoma jamiyat nomidan kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Direktor bilan tuziladigan shartnomada uning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.	10.5. После избрания (назначения) кандидата на должность директора наблюдательный совет заключает с ним договор сроком на 3 (три) года. Договор от имени общества подписывается председателем наблюдательного совета или лицом, уполномоченным наблюдательным советом. В договоре, заключаемом с директором, должны быть предусмотрены его обязательства по повышению эффективности деятельности общества, а также периодичность его отчетов перед общим собранием акционеров и наблюдательным советом общества о ходе выполнения ежегодного бизнес-плана общества.
10.6. Direktorga to'lanadigan haq miqdori jamiyat faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini bajarilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilanadi.	10.6. Размер вознаграждения, выплачиваемого директору, находится в прямой зависимости от выполнения ключевых показателей эффективности (КПЭ/КРП) деятельности общества и определяется в договоре.
10.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat Kuzatuv kengashi, ushbu jamiyat ustaviga muvofiq, direktor bilan tuzilgan shartnomani, agar u ushbu shartnoma shartlarini, jamiyat ustavini qo'pol ravishda buzsa yoki uning harakati (harakatsizligi) bilan jamiyatga zarar yetkazsa, u bilan tuzilgan shartnomani muddatidan avval bekor qilish huquqiga ega.	10.7. Общее собрание акционеров или Наблюдательный совет общества, в соответствии с настоящим уставом общества, имеют право досрочно расторгнуть договор с директором в случае грубого нарушения им условий договора, устава общества или если его действия (бездействие) нанесли ущерб обществу.
10.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori yoki Kuzatuv kengashining qarori bilan direktorning mehnat shartnomasi quyidagi sabablarga ko'ra bekor qilinishi mumkin:	10.8. По решению Общего собрания акционеров либо по решению Наблюдательного Совета трудовой договор с Директором может быть прекращен в связи с:

<p>- hisobot davri oxirida kompaniyaning moliyaviy rentabelligining yo'qligi;</p> <p>- hisobot davri oxirida kompaniya faoliyatining salbiy moliyaviy natijalari;</p> <p>- direktorning ishonchni yo'qotishiga olib keladigan noqonuniy xatti-harakatlar sodir etishi.</p>	<p>- отсутствием финансовой рентабельности общества по итогам отчетного периода;</p> <p>- при отрицательном финансовом результате деятельности общества по итогам отчетного периода;</p> <p>- совершением Директором противоправных действий, повлекших утрату доверия.</p>
<p>10.9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining direktor bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish yoki muddatidan avval bekor qilish to'g'risidagi qarori yig'ilishda qatnashayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyadorlarning – aksiyalar egalari bilan ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.</p>	<p>10.9. Решение общего собрания акционеров о прекращении или досрочном расторжении договора с директором принимается большинством голосов участвующих в собрании акционеров — владельцев голосующих акций общества.</p>
<p>10.10. Kuzatuv kengashining direktor bilan tuzilgan shartnomani muddatidan avval bekor qilish to'g'risidagi qarori majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi</p>	<p>10.10. Решение Наблюдательного совета о досрочном расторжении договора с директором принимается большинством голосов членов Наблюдательного совета, присутствующих на заседании.</p>
<p>10.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan direktorning vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, uning vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.</p>	<p>10.11. В случае принятия Общим собранием акционеров или Наблюдательным советом общества решения о прекращении полномочий директора, вопрос о передаче его полномочий другому лицу может быть решен на этом же собрании либо оставлен для рассмотрения на ближайшем Общем собрании акционеров с назначением лица, временно исполняющего обязанности руководителя исполнительного органа общества.</p>
<p>10.12. Direktor vakolatiga jamiyatning joriy faoliyati rahbarligining barcha masalalari kiradi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashning vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno.</p>	<p>10.12. К компетенции директора относятся все вопросы руководства текущей деятельностью общества, за исключением вопросов, входящих в компетенцию Общего собрания акционеров или Наблюдательного совета.</p>
<p>10.13. Direktor quyidagi huquqlarga ega: jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalarida, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilot va korxonalarda jamiyat manfaatlarini ifodalash;</p> <p>jamiyatning bank va boshqa moliyaviy hujjatlariga birinchi imzolash huquqi bilan banklarda hisob-kitob, valyuta va boshqa hisobvaraqlar ochish;</p> <p>jamiyat nomidan boshqa tashkilot va korxonalar bilan bitimlar tuzish;</p> <p>jamiyat nomidan hujjatlarni imzolash;</p> <p>o'z vakolatlari doirasida jamiyatning mol-mulki va mablag'larini tasarruf etish;</p>	<p>10.13. Директор обладает следующими правами: действовать от имени общества без доверенности, представлять интересы общества в государственных учреждениях, во всех организациях и предприятиях независимо от формы собственности;</p> <p>открывать в банках расчетные, валютные и иные счета с правом первой подписи на банковских и других финансовых документах общества;</p> <p>заключать сделки от имени общества с другими организациями и предприятиями;</p> <p>подписывать документы от имени общества;</p> <p>распоряжаться имуществом и средствами общества в пределах своих полномочий;</p>

<p>xodimlarning shtat jadvalini belgilash va tasdiqlash;</p> <p>xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, mehnat va ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga va me'yoriy hujjatlariga muvofiq jamiyat xodimlariga ish haqini (barcha turdagi ustamalar va mehnati bilan ishtirok etish koeffitsientlari) belgilash hamda moddiy rag'batlantirish;</p> <p>jamiyatning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni va jamiyat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;</p> <p>jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;</p> <p>jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarining boshqaruv organlarida uning vakillarini jamiyat nomidan ovoz berish bo'yicha ko'rsatma berish;</p> <p>jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;</p> <p>jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashining vakolatiga kiruvchi ichki me'yoriy hujjatlar bundan mustasno;</p> <p>qonunchilikda, jamiyat ustavida va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa huquqlarlarni amalga oshirish.</p>	<p>определять и утверждать штатное расписание сотрудников;</p> <p>принимать на работу сотрудников, заключать и расторгать с ними трудовые договоры, применять к ним меры дисциплинарного взыскания, обеспечивать соблюдение трудовой и исполнительской дисциплины;</p> <p>устанавливать заработную плату (все виды надбавок и коэффициенты трудового участия) и материальное стимулирование работников общества в соответствии с трудовым законодательством и нормативными актами Республики Узбекистан;</p> <p>утверждать положения о структурных подразделениях общества и должностные инструкции работников общества;</p> <p>выдавать доверенности от имени общества;</p> <p>давать указания представителям общества в органах управления предприятий, входящих в состав общества, по голосованию от имени общества;</p> <p>издавать приказы, распоряжения и давать указания, обязательные для всех работников общества;</p> <p>утверждать внутренние нормативные документы общества, за исключением внутренних нормативных документов, входящих в компетенцию общего собрания акционеров или наблюдательного совета;</p> <p>осуществлять иные права в соответствии с законодательством, уставом общества и трудовым договором.</p>
<p>10.14. Jamiyat direktori Jamiyat ustavi va "Jamiyat ijroiya organi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi</p>	<p>10.14. Директор общества осуществляет деятельность на основании устава Общества и положения «Об исполнительном органе общества».</p>
<p>10.15. Agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-</p>	<p>10.15. Если в результате нарушения исполнительным органом общества порядка заключения крупной сделки или сделки с аффилированными лицами был причинен ущерб обществу и при этом в установленном законодательством порядке будет доказана вина директора общества, он несет субсидиарную ответственность по обязательствам общества по</p>

mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.	возмещению задолженности перед кредиторами в случае недостаточности его имущества.
10.16. Jamiyat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan axborot va hisobotlar bir yil ichida ikki va undan ortiq marotaba o'z vaqtida oshkor etilmagan taqdirda, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi ijroiya organini o'zgartirish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida ko'rsatma kiritishga haqli.	10.16. В случае несвоевременного раскрытия обществом информации и отчетности, предусмотренных законодательством о рынке ценных бумаг, два и более раза в течение одного года, уполномоченный государственный орган по регулированию рынка ценных бумаг вправе вносить предписание о рассмотрении вопроса смены исполнительного органа.
11. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH.	11. КОНТРОЛЬ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ОБЩЕСТВА.
11.1 Aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lsa jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.	11.1. В обществе создается служба внутреннего аудита, если балансовая стоимость его активов превышает стотысячекратный размер базовой расчетной величины. Служба внутреннего аудита подотчетна наблюдательному совету общества.
11.2. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonunchilikka, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.	11.2. Служба внутреннего аудита общества контролирует и оценивает работу исполнительного органа, филиалов и представительств общества путем проверки и мониторинга соблюдения ими законодательства, устава общества и других документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в бухгалтерском учете и финансовой отчетности, соблюдения установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также соблюдения установленных законодательством требований по управлению обществом.
11.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.	11.3. Служба внутреннего аудита общества осуществляет свою деятельность в соответствии с порядком, устанавливаемым Кабинетом Министров Республики Узбекистан.
11.4. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda o'zi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishni amalga oshirishi shart.	11.4. Общество обязано осуществлять раскрытие информации об обществе в порядке и сроки, установленные законодательством.
11.5. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda oshkor etilishi majburiy bo'lgan barcha axborotni Korporativ axborotning yagona portalida e'lon qilishi shart.	11.5. Общество обязано публиковать на Едином портале корпоративной информации всю информацию, подлежащую обязательному раскрытию, в порядке, установленном законодательством.
11.6. Fond birjasining rasmiy veb-saytida va Korporativ axborotning yagona portalida axborotning oshkor qilinganligi jamiyatni qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat organlarining yozma so'roviga ko'ra axborot taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.	11.6. Раскрытие информации на официальном веб-сайте фондовой биржи и Едином портале корпоративной информации не освобождает общество от обязанности ее предоставления по письменному запросу государственных органов в случаях, предусмотренных законом.

11.7. Jamiyat o'zi va affillangan shaxs o'rtasida tuzilgan bitim haqidagi axborotni bitim tuzilgan paytdan e'tiboran 72 soat ichida Korporativ axborotning yagona portalida oshkor etishi shart.	11.7. Общество обязано раскрывать на Едином портале корпоративной информации информацию о сделке, заключенной между обществом и аффилированным лицом, в течение 72 часов с момента ее заключения.
11.8. Jamiyat oshkor etilishi majburiy bo'lgan axborotni va (yoki) boshqa axborotni o'zining rasmiy veb-saytida o'z xohishiga ko'ra oshkor etishga haqli.	11.8. Общество вправе раскрывать информацию, подлежащую обязательному раскрытию, и (или) иную информацию, на своем официальном веб-сайте по своему усмотрению.
12. YAKUNLOVCHI QOIDALAR	12. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ
12.1. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik bilan tartibga solinadi.	12.1. Вопросы, не урегулированные настоящим Уставом, регулируются Гражданским кодексом Республики Узбекистан, Законом «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и иным законодательством.
12.2. Mazkur Ustav begilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.	12.2. Настоящий Устав вступает в силу с момента его государственной регистрации в установленном порядке.
"ADM JIZZAKH" AJ Bosh direktori	Генеральный директор АО "ADM JIZZAKH"
Shamshidinov Najmidin Sayfutdinovich	Шамшидинов Нажмидин Сайфутдинович
	